

DAVLAT BOSHQARUVI VA JAMIYAT RIVOJIDA GENDER TENGLLIK MASALASINING AHAMIYATI

Alixanova Shaxnoza Paxlavon qizi

Namangan davlat universiteti Yuridik fakultet talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyat hayotida va oilaviy munosabatlardagi eng dolzarb masalalardan bo'lgan gender tenglik masalasining ahamiyati, bu sohadagi mavjud muammolarni tahlil qilish, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini pragmatik tahlil qilishning samaralari va milliy mentalitet va zamonaviy dunyoqarashning uyg'unlashuvi oilaviy munosabatlarning mustahkam bo'lishida alohida ahmiyat kasb etishi bu borada yangicha yondashuvning vujudga kelishi gender tenglik masalalari jamiyatda ayollarning huquqiy maqomi qay darajada mustahkamlanayotgani va buning uchun qanday amaliy choralar ko'rilaoytganiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Gender , pragmatizm, demokratiya, diskriminatsiya, zo'ravonlik, ayollar daftari, reabilitatsiya, psixologik tajovuz, himoya orderi.

Annotation: In this article, the importance of the issue of gender equality, which is one of the most pressing issues in the life of society and family relations today, the analysis of existing problems in this area, the results of a pragmatic analysis of the experience of developed foreign countries, and the combination of national mentality and modern worldview in the strengthening of family relations are presented in this article. of particular importance is the emergence of a new approach to gender equality issues, to what extent the legal status of women in society is being strengthened and what practical measures are being taken for this

Key words: Gender, pragmatism, democracy, discrimination, violence, women's notebook, rehabilitation, psychological aggression, protection order

Аннотация: В данной статье рассматривается важность проблемы гендерного равенства, которая сегодня является одной из наиболее актуальных в жизни общества и семейных отношений, анализ существующих проблем в этой сфере, результаты прагматического анализа опыта В данной статье представлено сочетание национального менталитета и современного мировоззрения в укреплении семейных отношений, особое значение имеет появление нового подхода, в этой связи вопросы гендерного равенства посвящены тому, в какой степени укрепляется правовой статус женщин в обществе и какие практические меры для этого принимаются

Ключевые слова: Гендер, прагматизм, демократия, дискриминация, насилие, женский блокнот, реабилитация, психологическая агрессия, охранный ордер.

Kirish

So'ngi yillarda jahonda global miqyosda e'tibor berilayotga masalalardan biri bu "Gender tenglik" masalasi bo'lib, demokratik davatlarda huquq sohalari rivojlanishi bilan bir qatorda insonlarni qonun oldida teng bo'lishi ham izchil muammoga aylanayotganini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda "Gender tengligi" nafaqat barcha insonlar uchun asosiy huquq, balki tinch farovon va barqaror dunyo uchun zarur poydevordir.

Respublikamiz va xalqaro hamjamiyat bu borada qanday yutuq va kamchiliklarga ega ekanligi va amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlar dolzarbligicha qolmoqda, statistik ma'lumotlar bugungi kunda ayrim oilalarda ayollarga nisbatan zo'ravonlik qilish ularga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish va ularni haq-xuquqlarini poymol qilinish

holatlari uchramoqda. Shuning uchun ham Gender tenglik masalasiga barcha sohalarda jiddiy e'tibor qaratilishi, mavjud kamchiliklarni tizimli ravishda bartaraf etish choralar ko'riliishi va ayni shu mavzu bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar Yangi O'zbekistonagi siyosiy jarayonning bir qismi ekanligi ham mavzuning qanchalik dolzarbligidan darak beradi.

So'ngi yillarda yoshlarimizga imkoniyatlar doirasi kengaydi, nikoh va oilalarning buzilishi kamaydi va ayollarning siyosiy maydondagi vakilligi har qachongidan ham yuqori hisoblanmoqda. Zero bu masala faqat bizning Respublikamizdagina emas, balki butun dunyoda bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu jihatlarni e'tiborga olgan holda bo'lajak yurist sifatida ushbu mavzuni tatqiq qilib sohada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar va ularning natijalari, hozirgi kundagi ayrim kamchilik va nuqsonlar va bularning tizimli chora tadbirlari, rivojlangan davlatlar tajribalarini pragmatic tahlili, muammolarning yechimini topishda zamonaviy ko'plab xorijiiy davlatlar tajribasini milliy qonunchiligidan qilish, mavju muammolarni esa tizimli ravishda bartaraf etish yuzasidan taklif va mulohazakarga ham to'xtalib o'tishimiz kerak. Ayni shu nuqtai nazardan bir qator statistic ma'lumotlarni ham amaliy jihatdan tahlil qilib o'tamiz.

Asosiy qism

Aksariyat demokratik davlatlarda erkak va ayollarning teng huquqliligi ya'ni oilada, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bir xil huquq va imkoniyatlarga ega ekanligini ta'minlash davlatning eng muhim masalalaridan biri ekanligini e'tiborga olgan holda, Gender tushunchasini tarixiy jihatdan tahlil qilsak. Gender tushunchasini ilk bor Yunon faylasufi Antifont-o'z asarlarida keltirarkan jumladan shunday deydi "Tabiat barchani – ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratdi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi". Demak, notenglikni biz o'zimiz keltirib chiqararkanmiz. Birinchi bo'lib 1791-yilda Olimpiyada De Guj ilgari surgan Fuqarolik va ayol huquqlari dekloratsiyasi birinchi marta ayolning erkin fikrashi va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi ochiqchasiga e'tirof etdi. Aynan mana shundan boshlab, Gender tenglik bo'yicha amaliy ishlar boshlandi, Bu ishlar 1968-yilga kelib yangi bosqichga ko'tarildi. Ya'ni shu yili Amerikalik psixolog olim Robert Strolle tomonidan fanga "Gender" atamasi kiritildi. "Gender" tushunchasi "jins" ma'nosini anglatib, eng avvalo erkak va ayol munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda siyosiy, huquqiy va iqtisodiy sohalarni qamrab oladi.

Tarixiy faktardan ma'lumki Gender tenglik masalasi har bir davrning eng muhim masalalaridan biri hisoblangan bo'lib, bu o'tgan davr va hozirgi kunda ham dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Faqat hozirgi kunda bu jarayonga yondashuvda yangicha qarash paydo bo'lgan. Bu jarayon Respublikamizda ham izchil o'zgarishlarni amalga oshirmoqda xususan, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolatligi olib borilayotgan isloxitlar qay darajada muhim ekanligidan dalolat beradi. To'g'ri, hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquqlar millati, jinsi, irqi yoki etnik kelib chiqishi, rangi, dini, tili yoki boshqa huquqiy maqomidan qat'i nazar, hech qanday kamsitishlarsiz barcha uchun xosdir.

Inson huquqlari yashash huquqi kabi eng asosiy huquqlardan tortib, munosib turmush tarzini ta'minlashga xizmat qiladigan ta'lim olish, mehnat qilish yoki ijtimoiy ta'minot olish kabi huquqlariga qadar barcha huquqlarni qamrab oladi.

Tenglik so'zini ko'pgina shaxslar turlicha talqin qilib boshqa shaxslarni fikridagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bunga misol qilib diniy qarashlarga ega bo'lgan fuqaro tenglik so'zini boshqacharoq tushunadi ya'ni muqaddas Qur'oni Karimda Ayol kishi erkak kishidan bir pog'ona pastda bo'lishi kerak ayol kishi erkak kishining egri qovurg'asidan yaralgan degan qarashlarga asoslanib ayollarning huquqlarini birmuncha cheklashadi. Demokratik davlatlarda gender tenglik masalasidagi ilk qadamlar maktabdan boshlanib, u yerda o'g'il va qizlarni bir sinda o'qishlari bu jarayonga misol bo'ladi. Bu jarayon asta sekinlik bian davom ettirilib, oliy ta'limdagi faoliyat va keyinchalik mehnat qilish jarayonida ham uzlusiz davom etadi.

So'ngi yillarda ayollarga nisbatan zo'ravonlik ishlatish holatlari ham OAV vositalarida ko'plab uchramoqda va shu o'rinda zo'ravonlik o'zi nima va uning qanday turlari mavjud degan savolga to'xtalib o'tishimiz kerak. Zo'ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik);

So'ngi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarni ijtimoiy va siyosiy hayotdagi ro'lini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- Ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- Ayollar himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- Aholining gender tenglik va ayollar xuquqlari to'g'risidgi xabardorligini yanada oshirish;

Huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etishni taminlash uchun ma'sul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy meyorlar asosida o'qitish.

Teng bo'lmagan jamiyatni birlashtirish juda ham qiyin ammo jamiyatdagi barcha insonlar teng bo'lishsa ularni bir bo'lishi oson hisoblanadi. Bunday jamiyatda insonlarni ayollarga bo'lgan zoravonlik va tahqirlash holatlari kuzatilishi juda ham qiyin. Chunki rivojlangan demokratik davlatlarda oilaning o'rni qachalik muhim bo'lsa jamiyat shuqadar mustahkam bo'ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antonio Guterresh "Gender tengligiga erishish va ayollar va qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bizning zamonomamizning tugallanmagan ishi va dunyomizdagi inson huquqlari bo'yicha eng katta muammo ekanligini aytib o'tdi. Chunki har yili ayollar turli xil kamsitilishlar va zo'rliklar ayollarni huquqlari tahqirlanishidan aziyat chekadi nafaqat ayollar balki turli din vakillari boshqa irqdagi shaxslar ham bundan mustasno emas. Har yili dunyoda o'rtacha nikohning buzilishi tufayli oilaning buzilishi rivojlangan mamlakatlarda tez-tez uchrasa, an'anaviy oila tuzilishining buzilishi tufayli madaniy bosqin sodir bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'proq kuzatiladi;

Shuning uchun ham jamiyatimizda ko'pgini ayollarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish zamiri ham shunda deb o'ylayman. Mazkur soxadagi qonunchilik choralariga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekistonda xotin-qizlarni huquqlarini ta'minlash hamda himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019-yil sentabr oyida "Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" qonunlar qilinishi davlatimizdagi gender tengligini ta'minlanayotganidan darak beradi. Islohotlar doirasiga qo'shimcha qiladigan bo'lsak "Xotin qizlar tazyiq va zo'ravonlikdan ximoya qilish" to'g'risida qonun qabul qilindi.

Mamlakatimizda Gender tengligini joriy qilish nuqtai nazaridan ta'limdag'i ijobiy siljishlarni alohida aytib o'tish lozim. Ya'ni 2017- yildan boshlab aksariyat oliv o'quv yurtlarida turli mutaxasisliklar bo'yicha sirtqi ta'lim yo'nalishi tiklandi. Talimning bunday shakli yangi oilalarda yosh ayollarga farzand tarbiyasida oilada boshqa shaxslar bilan bo'ladigan munosabatlarda to'laqonli ishtirok etishga yo'l ochildi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bunga yaqqol misol Gender masalalari yuzasidan O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari orasida yuritayotgan ilg'or siyosati natijasida 2021-yilda birinchi bo'lib muloqotga O'zbekiston raislik qildi.

Gender tengligi bo'yicha institutsional sohaga kelsak ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis Senatida ayollar huquqini taminlash va kansitilishlarni har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tengligini ta'minlash bo'yicha qo'mita tuzib chiqildi. Ushbu tashkil etilgan barcha institutsional mexanzimlar O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi bilan BMT konvensiyasiga muvofiq ayollar huquqlarini gender tengligi va xotin-qizlarni kansitilishiga barham berish masalaning muhim tomonidir. Ta'kidlasah joiz, qabul qilingan normativ-meyoriy hujjatlar va amaliy chora tadbirlar O'zbekistonning Gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro me'yor va standartlariga to'liq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning Inson huquqlari bo'yicha idoralari tavsiyalariga asoslangan. Ayniqsa, Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Gender siyosatini monitoring va samaradorligini baholash sohasida www.gender.stat.uz saytida qo'shimcha 54 ta gender ko'rsatkichlarini kiritish orqali muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Xotin-qizlarimizga siyosiy ijtimoiy iqtisodiy hayotda to'liq va samarali ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha ishlarni izchil davom ettirish zarur. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi va Xotin qizlarning tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonunlarning bajarilishini ta'minlash uchun Yo'1 xaritalarini qabul qilish rejalashtirilgan. Bundan tashqari Gender tengligi bo'yicha milliy strategiyani qabul qilish rejasi ham mavjud. BMT agentliklari gender tengligi va kansitilgan ayollar masalasida, shu jumladan maxsus hujjatlarni rejalashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirish yangi kodeklarning maxsus qoidalarni, jinoiy-protsesual va ijro etuvchi bosqichlarni ishlab chiqishda bundan keyin ham ko'mak berishga tayyor. Qabul qilanayotgan chora-tadbirlar mamlakatning barcha hududlari va xotin-qizlarning barcha toifalarini qamrab qamrab olishi zarur. Xususan, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT global kun tartibini Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish kun tartibidagi tamoyillarni, ayniqsa Hech kimni ortda qoldirmaslik Adolat va Insoniylik tamoyillarini hisobga olgan holda, har xil kansitish shakllariga moyil bo'lgan xotin-qizlarning holatiga alohida etibor qaratish dolzarb masaladir.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki bugungi kunda jamiyatning eng kichik bo'g'ini oila, mahalladan tortib toki, davlat boshqaruvinining eng yuqori bo'g'inlarida ham gender tenglik masalasiga jiddiy e'tibor berilayotgani ayollarni yanada o'z faoliyklarini oshirishlarida alohida motivatsiya bo'lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazaridan gender tengligiga erishish bugungi kunda har bir demokratik davlatning rivojlanishidagi asosiy sabablardan biridir. Jamiyatda asta sekinlik bilan gender tenglik masalasiga nisbatan o'zgacha e'tibor berish mezonlari paydo bo'lmoqda, odamlarda ayollarning huquq va erkinliklari ularning jamiyat hayotida naqadar muhim o'rinn tutishlari yanayam yorqin

tarzda namoyon bo'lmoqda. Misol o'rnida Yangi O'zbekistonimiz olib borilayotgan amaliy ishlar ya'ni davlat rivojida harbir ayolning o'z xissasi o'zining ulushi yuzaga kelayotganligi har tomonlama quvonarli holat hisoblanadi. Shuning uchun ham bu mavzuda insonlarimizning huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirishimiz va dunyoviy qarashlarini rag'batlantirmoq joiz. Gender tengligi, birinchi navbatda-insonlar huquqidir. Bu barcha sinflar va irqlardagi ayollar, erkaklar yigit va qizlar teng huquqli ishtirok etishini va teng qiymatga ega ekanligini anglatadi. O'zbekistonda ham gender tengligiga erishish uchun 2030-yilga qadar davlatimizda gender tengligiga erishish strategiyasi tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlaydiki "Bir narsani har birimiz tan olishimiz kerak ayollar xalqning dardni boshqalardan ko'ra chuquroq his qiladi" oilaning asosi ayol demakdir. Gender tushunchasi madaniyatga singib ketgan, boshqacha qilib aytganda, madaniyat - bu qadriyatlar va me'yorlar, munosabat va stereotiplar to'plami, ijtimoiy tarkibga kiritilgan, jinsga qarab belgilanadigan xatti-harakatlar va ijtimoiy o'zaro ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Sharq qadriyatlarida ayol doimo erkak kishiga do'st, yor, oqila, mehribon, oilaviy tinchlikning rahnamosi sifatida ulug'langan. Ayollarning oila va jamiyatdagi roli, xususan, farzand tarbiyasi va ijtimoiylashuvidagi ahamiyati mutafakkirlar tomonidan e'tirof etilgan. Abu Rayhon Beruniy o'z qarashlarida oila tinchligi bevosita oqila, aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar qo'lida ekanligiga alohida ahamiyat qaratgan. Ko'rinib turibdiki buyuk muttafakirlarimiz ham ushbu holatga ijobiy yondashganiga guvox bolishimiz mumkin.